

## **XORIJIY TILLARNI O‘QITISHDA TURIZM FAOLIYATI UYG‘UNLIGINI TA’MINLASH**

**G‘aniyeva Shohsanam Nekmurodovna**

Buxoro viloyat Buxoro tuman 23-maktab

Ingliz tili o‘qituvchisi

### **ANNOTATSIYA**

Bizga ma’lumki xorijiy tillarni o‘rganish hozirgi zamoning eng katta talablaridan biridir. Shu munosabat bilan yurtimizda xorijiy tillarni o‘rganish davlat siyosati darajasigacha ko‘tarilmoqda. Usbu maqola xorijiy tillarni o‘qitishda turizm faoliyati uyg‘unligini ta’minalashga bag‘ishlanadi.

**Kalit so‘zlar:** xorijiy tilarni o‘qitish tizimi, turizm industriyasi, amaliy darslar, xizmat ko‘rsatish;

### **THE ROLE OF TOURISM IN TEACHING FOREIGN LANGUAGES**

#### **ABSTRACT**

Foreign languages are absolutely necessary for people. Nowadays learning foreign languages is the most important requirement of the present time. So learning foreign languages is rising as the policy of our country. This article is devoted to learning English language through the tourism.

**Key words:** the system of learning foreign languages, tourism industry, practical lessons, service.

Hozirgi kunda yurtimizda xorijiy tillarni bilish davlat va jamiyat tomonidan qo‘yilgan eng asosiy talablardan bo‘lib sanaladi. Xorijiy tilni bilish nafaqat ta’lim sohasida balki barcha jabhalar uchun yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashdek

dolzarb masalani yuzaga keltirmoqda. Chet tillarni puxta egallash ushbu soha mutaxassislariga qo‘yiladigan asosiy talablardan biridir. Prezidentimiz Islom



Karimovning 2012-yil 10-dekabrdagi qabul qilingan “Chet tillarni o‘rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori, “Xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish agentligi” tashkil etilishi,O‘zbekiston Respublikasi prezidentining 2021-yil 19-maydagi “O‘zbekiston

Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirishn samarali tashkil etish chora-tadbirlarito‘g‘risidagi 312-sonli qarori kabilar xorijiy tillarni o‘rganishni va o‘qitishni ommalashtirish uchun dasturiamal bo‘lib xizmat qiladi. Xorijiy tillarni bilish turizm faoliyati uchun ham yetuk mutaxassislarni yetkazishda muhim rol o‘ynaydi Bizga ma’lumki sayyohlik iqtisodiyot tarmoqlarining yetakchi bo‘g‘inlaridan bo‘lib hisoblanadi.Buxoro viloyati esa bu borada benihoya kata salohiyatga ega. Viloyatimiz hududida 660 ta moddiy madaniy meros obyekti ro‘yxatga olinganining o‘ziyoq juda ko‘p narsani anglatadi.



Buxoro viloyatida turizm faoliyatini rivojlantirish,turizm industriyasini va infratuzilmasini yanada takomillashtirish maqsadida Yurtboshimiz tomonidan tasdiqlanga dastur asosida jami 20 dan ortiq yangi mehmonxonalar qurib foydalanishga topshirildi.Bundan tashqari viloyatimiz mehmonlari uchun madaniy-ko‘ngilochar maskanlar, xizmat ko‘rsatish obyektlari faoliyati yo‘lga qo‘yilgan.Ammo sayyohlik sohasida yetuk kadrlarning yetishmovchiligi sababli turizm salohiyatidan to‘laqonli

foydalana olmayapmiz.Xizmat ko'rsatish bilan birga xorijiy tilarni puxta bilish xorijiy davlatlarning madaniyati, tarixi,zamonaviy hayot darajasi bilan tanish bo'lgan yetuk kadrlargina yurtimiz turizm salohiyatidan maksimal darajada foydalanishimiz uchun asosiy omil bo'lib xizmat qiladi.Buning uchun hatto maktab o'quvchilari dars dasturlariga ham amaliy soatlar kiritib, real turizm muhitini anglab yetishlari uchun pedagog o'qituvchilar tomonidan yetarlicha tushuncha va tavsiyalar berib borilishi lozim. Misol uchun bizning maktab Chorbakr majmuasi yaqinida joylashgan bo'lib, yuqori sinf o'quvchilarimiz uchun xizmat ko'rsatish va muloqotni takomillashtirgan holda amaliy darslar tashkil qilishimiz mumkin.Bu nafaqat turizm faoliyati uchun balki o'quvchilarimizda xorijiy tillarni o'rganishga bo'lan qiziqishni bir pog'onaga oshirgan bo'lamiz.



Xorijiy davlatlardan kelgan sayyoohlар gavjum bo'lган muhitda o'quvchi yanada tezroq til o'rganish imkoniyatiga ega bo'lib, o'z yurtining beqiyos tarixi,madaniy va ma'naviy boyliklari to'g'risida ma'lumot berish barobarida yoshlarimizning qalbida Vatanparvarlik hissini tarbiyalanadi.Bu esa viloyatimizning turistik salohiyatini yuqori darajaga ko'tarishda professional kadrlar muammosi yechimi bo'lib hisoblanadi.O'quvchilarimizda keljakda kasb tanlashlari jamiyatda o'z o'rınlarini topishlari va keljak orzularini amalga oshirishlari uchun muhim omil bo'lib hisoblanadi. Xorijiy tillarni o'qitish va turizm sohasini uyg'unlikda olib borish davr talabi sanaladi. O'zbekiston bepoyon diyor go'zal tabiat, mehmondo'st xalqi,zamonlarga tatigulik tarixi doimo sayyoohlarni o'ziga jalb qilib kelgan.Agar biz bu imkoniyatlardan to'laqonli foydalangan holda yoshlarimizda xorijiy tillarni bilish

darajasini oshirish va turizm sohalarini hamkorlikda olib borsak kelajakda O‘zbekiston turizm sohasi bo‘yicha yetuk turizm industiyasiga ega davlatlar qatoriga qo‘shiladi.

### **Foydalilanilgan adabiyotlar**

- 1.<http://uza.uz/posts/66971>
2. [https://xs.uz>post>bukhoroning-sayyohlik-salohiyati](https://xs.uz/post/bukhoroning-sayyohlik-salohiyati)
3. <http://ziyonet.uz/ru>
4. <https://uz.m.wikipedia.org>